

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(56 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(56 KB\)](#)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 fevral kungi "Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3571-son Qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 fevral kungi "Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3571-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 fevral kungi "Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3571-son qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga, Moliya vazirligiga hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari ayrim toifalarining:

2018 yil 1 martdan boshlab - mudirlar, tarbiyachilar, metodistlar, o'qituvchilar, defektologlar, psixologlar, musiqa rahbarlari va tarbiyachining yordamchilari mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalarini - 30 foizga;

2018 yil 1 sentyabrdan boshlab:

tayyorgarlik (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) guruhi tarbiyachilari, oliy ma'lumotli o'qituvchilar, defektologlar, psixologlar mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalarini, ularning bazaviy tarif stavkalari miqdorlarini umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari o'qituvchilarining bazaviy tarif stavkalari miqdorlariga tenglashtirgan holda - 30 foizga;

oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar pedagogik ma'lumotli tarbiyachining o'rinbosarlari mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalarini-20 foizga;

maktabgacha ta'lim muassasalari mudirlari mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalarini - 10 foizga tabaqalashtirib oshirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

b) Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor, Qamashi, Chiroqchi, Nishon, Yakkabog' va G'uzor tumanlarida, Buxoro viloyatining Olot, Shofirkon, Qorako'l, Peshku va Romitan tumanlarida, Surxondaryo viloyatining Qiziriq, Muzrabot, Oltinsoy, Boysun, Qumko'rg'on, Uzun, Sariosiyo tumanlarida joylashgan davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar saqlangani uchun amaldagi ota-onalar to'lovi miqdori 2023 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatda ikki baravar pasaytirilganligi;

v) 2018 yil 1 martdan boshlab davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachining yordamchisi mehnatiga hak to'lash tartibi bazaviy tarif stavkalaridan kelib chiqib joriy etish topshirilganligi;

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga:

2018 yilda ushbu qarorga muvofiq davlat ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga hak to'lashning bazaviy tarif stavkalarini oshirish bo'yicha qo'shimcha xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobiga moliyalashtirilishini ta'minlanishi, 2019 yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda ushbu xarajatlarni nazarda tutish;

davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy rag'batlantirishning maxsus jamg'armasini shakllantirishga qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lash fondining qat'iy ravishda 15 foizi miqdorida qo'shimcha mablag'lar ajratilishini ta'minlash topshirilganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga moddiy rag'batlantirishning maxsus jamg'armasi mablag'laridan maqsadli va manzilli foydalanilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatish, davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlari smetalarida ular alohida satrda ajratilishini nazarda tutish topshirilganligi;

e) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017 yil 29 dekabrda gi PQ-3454-son qarorining 32-ilovasiga muvofiq o'zgartirish kiritish topshirilganligi;

yo) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish topshirilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi (J.Usnatdinova), Moliya vazirligi (M.Sodiqov) hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (U.Saburov)ning davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari ayrim toifalarining:

a) 2018 yil 1 martdan boshlab - mudirlar, tarbiyachilar, metodistlar, o'qituvchilar, defektologlar, psixologlar, musiqa rahbarlari va tarbiyachining yordamchilari mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalarini - 30 foizga;

b) 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab:

tayyorgarlik (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) guruhi tarbiyachilari, oliy ma`lumotli o`qituvchilar, defektologlar, psixologlar mehnatiga haq to`lashning bazaviy tarif stavkalarini, ularning bazaviy tarif stavkalari miqdorlarini umumta`lim maktablari boshlang`ich sinflari o`qituvchilarining bazaviy tarif stavkalari miqdorlariga tenglashtirgan holda - 30 foizga;

oliy yoki o`rta maxsus, kasb-hunar pedagogik ma`lumotli tarbiyachining o`rinbosarlari mehnatiga haq to`lashning bazaviy tarif stavkalarini-20 foizga;

maktabgacha ta`lim muassasalari mudirlari mehnatiga haq to`lashning bazaviy tarif stavkalarini - 10 foizga tabaqalashtirib oshirilsin.

4. 2018 yil 1 martdan boshlab davlat maktabgacha ta`lim muassasalarida tarbiyachining yordamchisi mehnatiga hak to`lash tartibi bazaviy tarif stavkalaridan kelib chiqib joriy etish topshirilsin.

5. Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodiqov)ga:

2018 yilda ushbu qarorga muvofiq davlat ta`lim muassasalari xodimlari mehnatiga hak to`lashning bazaviy tarif stavkalarini oshirish bo`yicha qo`shimcha xarajatlar Qoraqalpog`iston Respublikasi mahalliy byudjeti hisobiga moliyalashtirilishini ta`minlasin, 2019 yildan boshlab esa Qoraqalpog`iston Respublikasi mahalliy byudjeti parametrlarini shakllantirishda ushbu xarajatlarni nazarda tutsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari M.A.Jumanov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:

- 🏠
- 🏢
- ✉️

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)